

**PRESUPPOZITSIYANING JAHON VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIDA
O‘RGANILISHI****Asila Shodiyeva Anvarjon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya: Pragmatikaning asosiy obyektlaridan biri bo‘lgan presuppozitsiyaga ishora qiluvchi leksik sath birliklarining gapda hosil qilgan grammatik ma‘nolarini aniqlash va ularning presuppozitsiyaga ishora qilishi qonuniyatlarini ochib berish, ular ishtirokida tuzilgan sodda gaplarning mazmuniy murakkablashuvi sabablarini aniqlash maqsad qilib belgilangan. Shuningdek, presuppozitsiya haqidagi tilshunos olimlarning qarashlari ilmiy tahlillar asosida berilgan.

Kalit so‘zlar: Presuppozitsiya tagbilim, ichki ma‘no, monema, pragmatik ma‘no, sintagmatik ma‘no, hukmning tabiiy asosi.

O‘tgan asrlardan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davrda tilshunoslik sohasi asosan ikki tarmoq asosida o‘rganib kelindi. Bu tarmoqlarning biri sistem-struktur tilshunoslik bo‘lsa, ikkinchisi an‘anaviy tilshunoslik nomi bilan yuritildi. Tilshunoslik sohasidagi bu ikki yo‘nalishning o‘xshash va farqli jihatlari F.D.Sossyur, G.Ostgof, K.Brugman, G.Paul, Ya.Grimm, F.F.Fortunatov, V.V.Vinogradov singari buyuk tilshunos olimlarning ishlarida ko‘rsatib, ularning tafsilotlari to‘laqonli ravishda yoritib berildi¹. Xususan, F.de.Sossyur tilning doimiy ikki ziddiyat asosiga qurilganligini ta‘kidlab, til va nutq masalalariga jiddiy e‘tibor qaratadi. Olim bu qarashi bilan ilk bor tilshunoslik sohasidagi ikkita katta bo‘linishga, sistem-struktur va an‘anaviy tilshunoslikka asos soladi.

Sistem-struktur tilshunoslik asosiy e‘tiborini nutq masalalariga qaratib, til birliklarining nutq vaziyati, so‘zlovchi va tinglovchilarning til haqidagi umumiy bilimlari, insonning ichki subruhiyati bilan bog‘liq jihatlarni o‘rganishni o‘z oldigadolzarb masala sifatida qo‘ydi². Bu masalalarning barchasi lingvistik pragmatikaning o‘rganish obyekti sifatida olimlarning e‘tiborini tortdi.

Dastlabki paytlarda alohida soha sifatida o‘rganilmay kelgan lingvistik pragmatika sohasi tilshunoslikda dastlab XIX asr oxiri XX asr boshlarida Pirs, U.U. Djems, D. Dyun, Ch. Morris singari olimlar tomonidan o‘rtaga tashlandi³. Bugungi kun o‘zbek tilshunosligi olimlaridan biri M. Hakimov pragmatika sohasini o‘rganar ekan, lingvistik pragmatikaning o‘rganish masalalariga alohida to‘xtalib uning umumiy va xususiy masalalarini yoritib beradi. Jumladan, lingvistik pragmatikaning xususiy masalalariga to‘xtatalar ekan, bu masalalarning

nutq obyekti, nutq subyekti va nutq masalalari bilan bog‘liq ravishda yuzaga chiqishini ko‘rsatib o‘tadi⁴.

Presuppozitsiya hodisasi muloqot qatnashchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo‘shimcha ikkilamchi ma‘lumot berish imkoniyatiga egaligi, suhbat qatnashchilarining bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lajak jarayon haqidagi oldindan ma‘lum bilimlari kabi omillarta‘sirida nutqiy maydonda namoyon bo‘ladi.

¹ Мадраҳимов И. Сўз серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. – Фарғона, 2005. – 13 б.

² Бурхонов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадosh келишиклар прагматикаси (пресуппозицион аспект). Фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 9 б.

³ Бурхонов З. Кўрсатилган манба. – Тошкент, 2008. – 9 б.

⁴ Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, Академнашр: 2013. 19 б.

Presuppozitsiyaning o'rganilish tarixi o'ziga xos bo'lib, uni o'rganish bilan dastlab tilshunoslar emas, balki mantiqshunoslar shug'ullanib, hayotga tadbiiq etganlar. Jumladan, presuppozitsiya tushunchasi mashhur mantiqshunos olim G.Frege⁵ g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, uning fikricha, presuppozitsiya *hukmning tabiiy asosi* sifatida o'rganilishi lozim⁶.

G.Fregedan so'ng presuppozitsiya haqidagi qarashlar P.Stroson tomonidan rivojlantirildi. Uning talqinicha, agar R gapining chinlik mohiyatiga ega bo'lishi uchun S gapining chinligi zaruriy shart bo'lsa, R gapi S gapini ketirib chiqaradi. Bunda S gapi R gapining presuppozitsiyasi hisoblanadi. Anglashiladiki, P.Stroson ham presuppozitsiyani hukmning semantik komponenti sifatida talqin etgan⁷.

Dunyo tilshunosligi presuppozitsiya muammosiga dastlab, O.Dyukrot, I.Bellert, Ch.Fillmor, G.Lakoff, P.Kiparskiy, va S.Kiparskiylar munosabat bildirishdi. Ularning ishlarida presuppozitsiyaning lingvistik maqomi belgilab berildi⁸.

O'zbek tilshunosligida XX asrning 80-yillariga kelib lingvistik presuppozitsiyani o'rganishga e'tibor qaratildi⁹. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab bu muammoni o'rganishga qaratilgan maxsus tadqiqot ishlari yuzaga keldi¹⁰. Presuppozitsiya tahliliga doir turli maqolalar e'lon qilindi¹¹.

L.A.Naumova presuppozitsiyani mantiqshunoslikdan farqli tarzda o'rgandi va tilshunoslik fanlarida qo'llanilayotgan presuppozitsiya tushunchasiga tasnif berdi. U mantiqshunoslikda presuppozitsiya sifatida quyidagilar tushunilishini qayd etdi:

1. Presuppozitsiya – gapning chin (haqiqiy)ligi mohiyatining mavjudligi semantik sharti.
2. Presuppozitsiya – gaplar o'rtasidagi mantiqiy aloqaning o'ziga xos ko'rinishi.
3. Presuppozitsiya – samarador muloqot uchun zarur bo'lgan pragmatik shart-sharoit.

Olima tilshunoslikda presuppozitsiya tushunchasining quyidagi uch aspektda qo'llanishini ko'rsatadi:

1. Obyektning mavjudligi va yagonaligi haqidagi presuppozitsiya (semantic ekzistensial presuppozitsiya).
2. Presuppozitsiya so'zning xususiyati sifatida (asosan, predikat vazifasida keluvchi otlar).
3. Presuppozitsiya kommunikatsiyaning pragmatik (lingvistik bo'lmagan) sharti sifatida.

⁵ Frege G. Смысл и денотат // Семиотика и информатика. – М., 1977. Вып. 8. – С. 185-186.

⁶ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент, 1992.

⁷ Strawson P.F. Introduction to logical theory. – L., 1953. – P. 273-276.

⁸ Ductor O. La description linguistique des inoncis franzaais et la notion de presupposition. // [www.persee.fr/dok/hom0439-Lcs.lois de discours-uts](http://www.persee.fr/dok/hom0439-Lcs.lois%20de%20discours-uts); Bellert I. О pewnym warunku spyjnonci textu // <https://books.google.co.uz/>; .

⁹ Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. – № 6. – 28-31 б; Нурмонов А. Кўмакчилик конструкциялар пресуппозицияси / -дан ташқари конструкцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. – 42-45 б.

¹⁰ Рахимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси. Филол.фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд. 1994. – 25 б.; Бурхонов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси (пресуппозицион аспект). Фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. 27 б.

¹¹ Лутфуллаева Д. Ўрнига кўмакчилик конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, – 1996. – №5. – 46-48 б.; Ҳакимов М. Тағмаъно ва тағбилим хусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, – 2001. – №1. – 30-34 б.;

Ko‘rinadiki, tilshunoslikda presuppozitsiya tushunchasining talqini mantiqiy tasavvurdagi presuppozitsiyadan tubdan farq qiladi¹².

Ma’lum bo‘ladiki, presuppozitsiya haqidagi qarashlar turlichadir, ammo presuppozitsiya olimlar tomonida qanday tasnif etilmasin, bizningcha, asosiy e’tibor uni yuzaga keltiruvchi til birliklari, professor A.Nurmonov ta’kidlaganlaridek, presuppozitsiya signallari tahliliga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мадраҳимов И. Сўз серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. – Фарғона, 2005. – 13 б.
2. Бурхонов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиқлар прагматикаси (пресуппозицион аспект). Фил. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 9 б.
3. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, Академнашр: 2013. 19 б.
4. Фреге Г. Смысл и денотат // Семиотика и информатика. – М., 1977. Вып. 8. – С. 185-186.
5. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент, 1992.
6. Strawson P.F. Introduction to logical theory. – L., 1953. – P. 273-276.
7. Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. – № 6. – 28-31 б;
8. Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозицияси / -дан ташқари конструкцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. – 42-45 б.
9. Ductor O. La description linguistique des inoncis franzaais et la notion de presupposition. // [www.persee.fr/dok/hom0439-Lcs.lois de discours-uts](http://www.persee.fr/dok/hom0439-Lcs.lois%20de%20discours-uts); Bellert I. O pewnym warunku spyjnonci textu // <https://books.google.co.uz>; Fillmore Ch. Types of lexical information. In: F.Kiefer (ed.) // «Studies in syntax and semantics», 1970. – № 1. – P. 151-271; Kiparski P., Kiparski C. Fact. – In: M. Bierwisch, K.E. Heidolph (eds.) Progress in linguistics. The Hague, 1970. – P. 143-173.

¹² Наумова Л.А. Пресуппозициив логике и лингвистике // Философия: в поисках онтологии: Сборник трудов Самарской гуманитарной академии. – Самара: Издательство СаГА, 1998. – № Вып. 5. – С. 236-255.